

BADIIY ADABIYOTNING INSON HAYOTIDA TUTGAN MADANIY VA MA'NAVIY O'RNI

Turan Xalqaro Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Jabborova Shahzoda Shavkatovna

Annotatsiya:

Inson hayotida oziq-ovqat jismoniy barqarorlik uchun qanchalik muhim bo'lsa, badiy adabiyot ham ruhiy barqarorlik uchun shunchalik katta ahamiyatga ega. Nafaqat ilmiy sohada, balki hayot jabhalarida ham ma'naviy meros o'z o'rniga ega. Ruhiy sog'lomlik fikrlash doirasi uchun ham qaror qabul qilish uchun ham kalit vazifasini bajaradi. Hatto eng qiyin vaziyatlarda ham ruhan barqaror inson o'z yo'lini oson tarzda topib keta olishi bilan bir qatorda, boshqalarga ham to'g'ri yo'lni ko'rsatib beradi. Ushbu maqolada biz badiy adabiyotning inson uchun qay tarzda muhimligini va dolzarbligini korib chiqishimiz mumkun.

Annotation:

Just as food is essential for physical stability in human life, literature is equally important for mental balance. Spiritual heritage holds its own place not only in the scientific sphere but also in various aspects of life. Mental health serves as a key to both the ability to think clearly and to make decisions. Even in the most difficult situations, a spiritually stable person can easily find their own path and guide others toward the right one. In this article, we will explore the importance and relevance of literature in human life.

Аннотация:

Как пища необходима для физической устойчивости человека, так и художественная литература имеет огромное значение для душевного равновесия. Духовное наследие занимает своё место не только в научной сфере, но и в различных областях жизни. Психическое здоровье служит ключом как к способности мыслить, так и к принятию правильных решений. Даже в самых

трудных ситуациях духовно устойчивый человек способен легко найти свой путь и помочь другим увидеть правильное направление. В данной статье рассматривается значение и актуальность художественной литературы в жизни человека.

Kalit Keywords: mental stability, worldview, cultural and spiritual heritage, intergenerational bridge, moral intelligence, optimistic and pessimistic tendencies, emotional intelligence, development

Ключевые слова: духовная устойчивость, мировоззрение, культурное и духовное наследие, мост между поколениями, нравственный разум, оптимистические и пессимистические тенденции, эмоциональный интеллект, развитие

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi”. Darhaqiqat, bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan zamonda insonlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga chorlashda badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchidan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlar turli xarakter va dunyoqarashga ega bo‘lganidek, badiiy adabiyot ham o‘z navbatida turli janr va yo‘nalishlarga bo‘linadi. Shu boisdan, uning ta’sir doirasi ham bir xil emas – ya’ni bir asar har bir o‘quvchiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi tezkor davrda insonlarning ko‘pchiligi hayot oqimiga berilib, to‘xtab biror narsa ma’nosini chuqur anglashga vaqt topolmaydi. Ammo, buning aksicha, oramizda badiiy so‘zning ma’nosini teran his etishga, undagi falsafani tushunishga intilayotgan insonlar ham oz emas.

Demak, eng avvalo “Badiiy adabiyot nima?” va “U inson hayotida qanday ahamiyatga ega?” kabi savollarga javob topish lozim. Badiiy adabiyot — bu ilmiy usullar bilan izohlab bo‘lmaydigan hayotiy hodisalarning hissiy yechimini topuvchi, inson qalbini tarbiyalovchi, ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi sa’nat turidir. U insonni o‘ylashga, his etishga va voqelikka nisbatan estetik munosabat bildirishga

undaydi. Shuningdek, adabiyot insonning ma'naviy va madaniy boyliklarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ma'naviy boylik – bu inson hayoti davomida orttirgan bilim, ko'nikma va hissiy tajribalar majmuasidir. Madaniy boylik esa – insoniyat tarix davomida yaratgan moddiy va nomoddiy merosidir. Badiiy adabiyot – bu xalq ma'naviyatining ko'zgusi, insoniyat tajribasining badiiy ifodasi hamda ruhiy poklanish manbaidir. [1]

Asosiy qism

Badiiy adabiyot haqida so'z yuritish ekanmiz, avvalo bilishimiz kerak bo'lgan narsa uning inson hayotidagi ro'li. Ho'sh badiiy adabiyot inson hayotida qanday ahamiyat kasb etadi, kelib chiqishi qanday?, qanday kirib kelgan?. Badiiy adabiyot inson hayotiga yozuv paydo bo'lmasidan oldin kirib kelgan. U birinchi navbatda, xalq og'izaki ijodi sifatida talqin qilingan. Hozirgi kunda ilmiy tilda badiiy adabiyot sifatida talqin qilinmoqda. Shundan so'ng, birinchi navbatda insonlar badiiy adabiyotga ertak, qo'shiq aytib kirib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, oddiy ertaklar ham insonlarni o'ylashga, fikr yuritishga undaydi. Badiiy adabiyotning birinchi ko'rinishi bu ertaklar hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda ertak o'qish kamayib bormoqda, bu bolaning ya'ni endi rivojlanib boshlayotgan yetuk shaxsning hissiy intellektdan orqada qolishiga sabab bo'ladi. Badiiy adabiyot inson hayotida suv va havo kabi zarur bo'lgan bir vosita. Nafaqat hozirgi vaqtda, balki o'tmish va kelajakda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaqin o'tmishda allomalar juda ham ko'p emas, qo'l bilan sanash mumkin hatto. Ularning rivojlanish sabablaridan biri badiiy adabiyotga qiziqish va bu qiziqishning davomiyligi.

Uilyam Shekspir, Dostoevskiy, Alisher Navoiy va Jorj Oruell kabi dunyo tanigan, badiiy adabiyotning durdonalari ham avval kuzatish, o'qish va fikrlash tufayli ulug'lashgan. Aqlning ijtimoiy intellekt degan tushunchasi bor, bu intellekt egalari omma bilan yaxshi aloqaga kirishadilar, o'zlarining fikrlarini hurmat qilish bilan bir qatorda har bir inson fikrini hurmat qiladilar. Buyuk allomalarimiz ana shunday intellekt egalari, badiiy adabiyot mana shu narsalarning poydevori

hisoblanadi. Agar poydevor mustahkam bo'lsa qurilyotgan har bir bino chidamli va buyuk bo'ladi. Masnaviyning bir terapiyalari bor bu terapiya xalq tilida "biblioterapiya" yoki "masnaviy terapiya" deb yuritiladi. [2]

Masnaviy terapiya — bu inson ruhiyatini davolash va tinchlantirishda badiiy adabiyotdan foydalanishdir. Bu so'z "Masnaviy" (Rumiy asari) va "terapiya" (davolash) so'zlaridan olingan. "Masnaviy terapiya" — bu Rumiy g'oyalari, hikmatlari, she'rlari va masnaviy hikoyalaridan foydalanib, inson qalbini tinchlantirish, ruhiy og'riqlarni yengillashtirish, hayotga ijobiy qarashni shakllantirish usulidir. Bu so'z "Masnaviy" (Rumiy asari) va "terapiya" (davolash) so'zlaridan olingan. Masnaviy terapiya insonni: ruhiy azoblardan, tashvish va ichki og'riqlardan xalos etish, hayotda ma'no topishga, muhabbat, kechirim, sabr, va mehr kabi qadriyatlarni qayta his etishga o'rgatadi. Bu terapiyada inson o'z muammosiga Rumiy hikoyalaridagi ma'naviy tushunchalar orqali yechim topadi. Bu terapiya qanday ishlaydi ?

Avvalo, muammo o'rganilib chiqiladi so'ng mavzuga mos dolzarb badiiy kitob tanlanadi, so'ng o'qiladi va olingan nazariy bilimlarni hayotga tatbiq etiladi. Inson badiiy asar o'qish davomida o'sha asarda yashaydi, ya'ni qahramonlar bilan hamnafas holatda asar so'nggiga qadar birga bo'ladi. Agar inson hayotida davomida qandaydir ko'ngilsiz hodisalar ro'y bersa, asardan olingan bilim va ko'nikmalar hayotiy tajribaga aylanadi. Badiiy adabiyot inson hayotida katta va kichik qarorlar qabul qilishga yordam berishi mumkin.

Aqilli insonlar tushunadilarki, ularning hayotida bo'lishi mumkin bo'lgan eng katta madaniy va ma'naviy boylik bu badiiy adabiyot hisoblanadi. Manaviy boylik bo'lishi bilan bir qatorda, xalqlararo ko'prik vazifasini ham bajaradi. Mana shu sabab insonlar bir birini oson taniydi va muloqotga oson kirishadi. Hozirgi 21 asr taraqqiyot davrida insonlar bu masalada, qanday faol bo'lishmoqda ?

[3] Ushbu jadvalda biz dunyo bo'yicha qaysi davlat badiiy kitob mutoaalasi bo'yicha nechinchi o'rinda turganini ko'rishimiz mumkun

Countries that Read (And Buy) The Most Books in 2024

COUNTRY	# OF BOOKS READ ANNUALLY
United States	17
India	16
United Kingdom	15
France	14
Italy	13
Russia	11
Australia	10
Spain	9
Netherlands	8
Switzerland	6.9

World Population Review'ning taqdim qilgan ma'lumotiga ko'ra, AQSh, Hindiston, Buyuk Britaniya, Fransiya va Italiya eng ko'p kitob o'qish bo'yicha kuchli beshlikdan joy olgan. Ajablanadigan joyi yo'q. Masalan, nima uchun AQSh reytingning eng yuqorisida joylashgan? Sababi amerikaliklar haftasiga 7 soat kitob o'qishar ekan. Bu esa yiliga 357 soat yoki qariyb 15 kun degandir. 2-o'rinda turgan hindlar esa haftasiga amerikaliklardan atigi 5 daqiqaga kamroq kitob o'qiydi. Bu esa yillik 14,5 kunga to'g'ri keladi. 3-o'rinni band qilgan Buyuk Britaniyada esa ingliz haftasiga 6,5 soat kitob mutola qiladi (yiliga 343 soat).

Keyingi 4- va 5-o'rinlarni egallagan Fransiya va Italiyada aholi bir haftada 5 soatdan ortiq vaqtini kitob o'qishga sarflaydi (Fransiyada haftasiga 5 soat-u 50 daqiqa,

Italiyada 5 soat-u 20 daqiqa). Yuqorida sanalgan davlatlar aholisining kitob o'qishiga havas qilsa arziydi. Chunki u yerda yashovchilar yiliga 10 tadan ortiq kitobni o'qib tugatadi. Masalan, o'rtacha hisobda 1 nafar amerikalik 17 ta, 1 nafar hind 16 ta, 1 nafar britaniyalik 15 ta, bir nafar fransuz 14 ta, bir nafar italyan bo'lsa 13 ta kitobni bir yilda o'qib, tamom qilarkan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, davlatlar mutolaani turli yo'llar bilan amalga oshiradi. Jumladan, garchi internet nashrlari yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, amerikaliklar elektron yoki audio kitoblardan ko'ra ko'proq bosma kitoblarni o'qishni ma'qul ko'radi. Britaniyada ham kitoblar rekord darajada sotiladi. Mana shu sababli ham Amerika Qo'shma Shtatlari rivojlangan davlatlar qatorida eng yuqorida turadi.

Sababi, inson hayoliga kashfiyotlar kelishi uchun miyya ilhomlanishi kerak, bunday hodisa esa faqat badiiy adabiyot natijasida yuzaga keladi. Badiiy adabiyot o'qish insonni ham aqliy ham hissiy jihatdan rivojlantiradi. Har bir ishda optimist bo'lishga yordam beradi. Ya'ni agar inson badiiy adabiyotga do'st tutunsa u optimistik va pessimistik tendensiyalarni teng ushlab tura oladi. Kim badiiy adabiyotni sevib mutoala qilsa, dunyoqarashi ham optimallasadi. Bir vaqtning o'zida ko'plab kasalliklarga davo bo'lgan - badiiy adabiyot mutoalasi inson uchun eng arzon da'vo. Har bir ota - ona farzand tarbiyalar ekan ular nafaqat moddiy balki ma'naviy jihatdan ham yetuk qilib o'stirishi lozim.

Bu ko'chatning kelajakda yetuk bir daraxt bo'lishiga xizmat qiladi. Bu masalada nafaqat ota ona balki ustoz va murabbiylar ham birdek ma'sul. Lekin nega hozirgi kunda badiiy adabiyotga qiziqish kamaygan ? . Buning asosiy sababi tezlashib borayotgan dunyo bo'lsa, boshqa sababi kechiktirilayotgan farzand tarbiyasi. Nega aqlini taniyotgan bolakay qo'liga telefon berilyabdi ? . Nega farzand yaxshi natija va muvofaqiyat uchun kitob bilan emas gadgetlar bilan rag'batlantirilyabdi. Buning sababi , badiiy adabiyotga qiziqish so'nggi yillarda sezilarli darajada kamaygan. Bu hodisa xalqning ham va butun jamiyatning ham rivojlangan mamlakatlardan ortda qolishig

asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. Bu holatga ko'plab yechimlar berishimiz mumkin. Birinchi navbatda kunlik reja tuzish va bu rejaga asosan bir kunda bir soat vaqtni badiiy kitob uchun sarflash. So'ng badiiy kitoblar uchun platformalar yaratish. Masalan mumtoz adabiyot uchun alohida, ilmiy adabiyot uchun ham alohida.

Bu holatta badiiy adabiyotga jamiyatni qiziqtirish osonroq va unumliroq bo'ladi. Chunki bu yechimlar vaziyatga kreativ yondashish usuli hisoblanadi. Psixologiyaga ko'ra inson miyyasi qiziqarli narsalarga e'tiborini oson qaratadi. Keyingi holatda esa kitob o'qishni aytish emas, qilib ko'rsatish, ya'ni ota-ona farzandiga kitobni o'zi o'qiyotganini ko'rsatadi, nazariy emas amaliy. [4] Buyuk alloma g'azal mulkingning sultoni quyidagicha aytadilar: Adabiyot insonni ma'naviy jihatdan, til va so'z jihatdan yetarli darajada yuksaltiradi, nutq sa'natini rivojlantiradi. Shunday ekan har bir oiladi kitob javoni ayniqsa, badiiy adabiyot bilan to'la bo'lgan kichik kutubxona bo'lishi nafaqat oila uchun balki butun jamiyatning aqlan rivojlanishiga sabab bo'ladi va mukammalik sari yetaklaydi.

Rivojlanishni istagan har qanday jamiyat o'z oldiga maqsad qo'yar ekan, shu maqsadlarning boshiga badiiy adabiyot o'qishni qo'yishi kerak, ilmiy sohadan tortib badiiy adabiyotgacha. Bugun badiiy adabiyotga e'tiborimizni kuchaytirar ekanmiz, bizdan so'ng dunyoni sog'lom va ruhan barqaror insonlar boshqarishiga guvoh bo'lamiz [5]. Adabiyot hayotni aks ettiradi, lekin ayni paytta uni ideallashtiradi. Boshqa tarafdin aytganda, inson hayoti davomida topishi mumkin bo'lgan juda kam narsalar bor, shulardan biri ma'naviy boylikdir. Inson hayotda mazmunni ham maqsadni ham oson topadi, qachonki badiiy adabiyotga do'st tutunsa. Badiiy adabiyot nafaqat estetik zavq beradi, balki vijdoniy aqlni ham shakllantiradi, hayotdagi barcha estetik zavqni ko'rishimizga yordam beradi.

Xulosa

Inson hayoti davomida erishishi mumkin bo'lgan eng katta boylik — bu moddiy emas, balki ma'naviy boylikdir. Chunki insonning ichki dunyosi, fikrlash tarzi va ruhiy

yetukligi jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Xalqlar o'rtasida do'stlik va o'zaro tushunishni ta'minlaydigan eng mustahkam vosita ham aynan ma'naviy merosdir. Bu meros orqali ajdodlarimiz o'z tajribasi, g'oyalari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazib, ular bilan ruhiy aloqa o'rnatadi. Bugungi kunda xalq mukammallikka, taraqqiyot va farovonlikka intilar ekan, u o'z oldiga katta maqsadlar qo'yadi. Biroq bu maqsadlarga erishishda insonning ruhiy va hissiy barqarorligi muhim o'ringa ega.

Aynan shu barqarorlikni ta'minlashda badiiy adabiyot va kitobxonlik beqiyos ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan har bir mamlakatda badiiy adabiyotga alohida e'tibor beriladi. Chunki badiiy adabiyot — bu nafaqat o'tmishning, balki kelajakning ajralmas qismi, xalqning ruhiy qiyofasidir. U inson tafakkurini boyitadi, his-tuyg'ularini noziklashtiradi, hayotga estetik nigoh bilan qarashni o'rgatadi. Badiiy asarlar insonni yomon qarorlar qabul qilishdan tiyadi, uni fikrlashga, tahlil qilishga va yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Inson miyasi yangi g'oyalar tug'iladigan maskandir, badiiy adabiyot esa uni oziqlantiruvchi manbadir. Har bir buyuk kashfiyotning zamirida ham inson hissi, tasavvuri va ilhomi yotadi — bu esa adabiyot orqali rivojlanadi. Intiluvchan va yaratuvchan insonlar, odatda, badiiy asarlarni sevuvchi, o'qishga odatlangan insonlardir. Hayotda muvaffaqiyatga erishgan shaxslar bilan muloqot qilganimizda, ularning nutqi, fikrlash doirasi, o'zini tutish madaniyati alohida ajralib turishini sezamiz. Buning sababi — ularning badiiy adabiyot bilan doimiy muloqotda bo'lishi, ya'ni o'qish orqali o'z shaxsiyatini tarbiyalashidir. Shunday ekan, inson bir kunda atigi bir soatini badiiy adabiyotga bag'ishlarsa ham, aslida o'z kelajagi, ruhiy yuksalishi va muvaffaqiyati yo'lida muhim qadam tashlagan bo'ladi. Zero, badiiy adabiyot — inson tafakkurining ko'zgusi, jamiyatning yuksalish garovi va ma'naviyatning abadiy manbaidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi rizdenti Shavkat Miravonovich Mirziyoyev nutqlari
2. Nevzat Tarxan "Masnaviy terapiya" Yangi asr avlodi Toshkent.sh 2022.y

3. Internet manbaasi. [World Population Review jurnali 2024](#)
4. Alisher Navoiy “Muhokamat ul -lug‘at tayn” Toshkent.sh 2000.y
5. Aristotel “Poetika” O ‘zbekiston fan nashriyoti Toshkent.sh 1990.y